

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Qashqadaryo doimiy aholisi soni 2018 yil 1 aprel holatiga 3159,9 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 11,5 ming kishiga yoki 0,4%ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1361,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 43,1 %), qishloq aholisi soni 1798,0 ming kishini (56,9 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2018 yil yanvar-mart

- Aholi soni 11,5 ming kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **15,7 ming nafarni** tashkil etdi.
- **3,2 mingta vafot etganlar** qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **4,5 mingta nikoh** va **0,6 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Qashqadaryo viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-mart oylarida)

Tirik tug'ilganlar
15,7 ming bola


Ko'chib kelganlar
3,4 ming kishi



Vafot etganlar
3,2 ming kishi


Ko'chib ketganlar
4,5 ming kishi

**Hududlar kesimida doimiy ahoi sonining taqsimianishi
(2018 yil 1 aprel holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)**



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni koʼrsatmoqdaki, 2018 yil 1 aprel holatiga eng koʼp aholi soni Chiroqchi tumanida 391,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 12,3 %ni) va Koson tumanida 273,5 ming kishini (8,6 %), aksincha eng kam aholi soni Muborak tumanida 83,4 ming kishini (2,6 %) va Mirishkor tumanida 115,0 ming kishi (3,6 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida aholining eng yugori oʼsish surʼati 2017 yilning mos davriga nisbatan Chiroqchi tumaniida 12,3 %ga, Koson tumanida 8,6 %ga, Yakkabog' 8,0 % ga, aksincha eng kam oʼsish surʼati Muborak tumanida 2,6 %ni, Mirishkor tumanida 3,6 %ni va Dehqonobod tumaniida 4,5 %ni tashkil etdi.



Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-mart oylarida 15,7 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,2 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan ko'paymagan (2017 yilning yanvar-mart oylarida 20,2 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Muborak tumanida (18,9 promilledan 19,5 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish esa Dehqonobod (25,9 promilledan 23,0 promillega) va Qarshi (18,5 promilledan 16,6 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-mart

	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati ,%
Qashqadaryo	15413	15703	101,9
Qarshi sh.	943	1439	152,6
Shahrisabz	506	588	116,2
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	986	1001	101,5
Dehqonobod	883	799	90,4
Qamashi	1389	1336	96,2
Qarshi	1062	972	91,5
Koson	1327	1398	105,4
Kitob	1185	1193	100,7
Mirishkor	534	526	98,5
Muborak	382	400	104,7
Nishon	770	772	100,3
Kasbi	886	858	96,8
Chiroqchi	2310	2281	98,7
Shahrisabz	990	902	91,1
Yakkabog'	1260	1238	98,2

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-mart oylarida 3,2 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-mart oylarida 4,3 promille bo'lган).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Mirishkor (4,1 promilledan 4,4 promillega), Shahrисabz (4,0 promilledan 4,4 promillega) va Yakkabog' (4,6 promilledan 5,1 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Qamashi (4,6 promilledan 4,0 promillega), Muborak (5,4 promilledan 3,2 promillega), Kasbi (5,0 promilledan 4,2 promillega) va Chiroqchi (4,2 promilledan 3,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar bo'yicha o'lganlar soni, kishi yanvar-mart


	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati, %
Qashqadaryo	3319	3209	96,7
Qarshi sh.	275	315	114,5
Shahrисabz	150	141	94,0
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	236	232	98,3
Dehqonobod	140	130	92,9
Qamashi	288	254	88,2
Qarshi	250	258	103,2
Koson	263	257	97,7
Kitob	247	248	100,4
Mirishkor	114	125	109,6
Muborak	108	66	61,1
Nishon	136	125	91,9
Kasbi	230	197	85,7
Chiroqchi	392	314	80,1
Shahrисabz	206	232	112,6
Yakkabog'	284	315	110,9

2018 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 58,8% qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,3 %i o'simtalardan, 5,8 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,3 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,2 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 17,5 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,2 ming nafarni tashkil etib, ularning 66,7 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 16,0 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 9,0 %i tug'ma anomaliyalardan, 2,6 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, va 5,7%i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lom sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-mart

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 12,5 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,4 ming kishiga (2017 yilning yanvar-mart oylarida 12,1 ming kishi bo'lgan) kamaygan.



Tabiiy o'sish:
109,2 ming kishi

Nikoh va nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 4,5 ming nikoh va 0,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koefitsiyenti 5,8 va 0,8 promilleni tashkil etdi.



Tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni, birlik yanvar-mart

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
Qashqadaryo	4 293	4527	538	589
Qarshi sh.	264	372	80	96
Shahrisabz	173	165	43	44
tumanlar:				
G'uzor	197	197	18	27
Dehqonobod	201	219	19	17
Qamashi	350	381	39	38
Qarshi	278	272	33	40
Koson	333	342	33	40
Kitob	372	384	64	74
Mirishkor	151	167	4	22
Muborak	89	100	16	13
Nishon	200	234	17	21
Kasbi	205	244	15	16
Chiroqchi	658	663	44	55
Shahrisabz	426	399	60	45
Yakkabog'	396	388	53	41

Migratsiya. 2018 yil yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,4 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,5 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,1 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,6 ming kishi bo'lган.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	2,7	3,4
Ko'chib ketganlar	3,3	4,5
Migratsiya saldosi	- 0,6	- 1,1

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Qarshi , Chiroqchi, (minus 0,3 ming kishi), G'uzor, Qamashi, (minus 0,2 ming kishi) tumanlari va Kitob, Shahrisabz,Yakkabog' (minus 0,1 ming kishi) qayd etildi.